

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«O‘ZBEK TILINI DUNYO MIQYOSIDA KENG
TARG‘IB QILISH BO‘YICHA HAMKORLIK
ISTIQBOLLARI»
mavzusidagi
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari**

2020-yil 19-20-oktabr

TOSHKENT - 2020

**«O‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish bo‘yicha hamkorlik istiqbollari»:
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari / Mas‘ul muharrir – Sh. Sirojiddinov. -T.: 2020.
- 550 bet.**

Mas‘ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay‘ati:

T. Tog‘ayev – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Z. Xolmanova – filologiya fanlari doktori, professor;
B. Mengliyev – filologiya fanlari doktori, professor;
M. Xakimova – filologiya fanlari doktori (DSc)
N. Ahmedova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent
M. Umurzoqova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
M. Xolmurodova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Sh. Bobomurodova – filologiya fanlari nomzodi
K. Mavlonova – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Ushbu to‘plamda «O‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish bo‘yicha hamkorlik istiqbollari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanga yuborilgan maqolalar jamlangan. To‘plamda o‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish uchun amalga oshirilayotgan ishlar, o‘zbek tilshunosligida bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlar, xalqaro hamkorlik masalalari, o‘zbek tili va turkiy tillar tarixi, o‘zbek tilining boshqa turkiy tillar bilan o‘zaro aloqalarini o‘rganish va rivojlantirish masalalari, madaniyatlararo muloqot va o‘zbek tili taraqqiyoti, globallashuv va hozirgi turkiy tillar, o‘zbek tilini o‘qitish muammolari, kompyuter lingvistikasi kabi o‘zbek tilshunosligining nazariy va amaliy masalalari haqida so‘z yuritiladi.

Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan

nomlar	9-bosqich	Turli o'lov va me'yor nomlari	<i>balandlik, pastlik</i>
	10-bosqich	Jismoniy holat nomlari	<i>tashnalik, xastalik</i>
Abstrakt nomlar	11-bosqich	Estetik tushunchalar nomlari	<i>go'zallik, nazokat, did</i>
	12-bosqich	Ruhiy holat nomlari	<i>sevinch, sog'inch, shodlik</i>
	13-bosqich	Abstrakt belgi nomlari	<i>botirlik, ezgulik, vafosizlik</i>
	14-bosqich	Munosabat nomlari Vaqt nomlari	<i>do'stlik, dushmanlik o'tmish, davr</i>
	15-bosqich	Mental tushuncha va holat nomlari	<i>fikr, g'oya, aql, ong</i>
	16-bosqich	Ijtimoiy-siyosiy tushuncha nomlari	<i>siyosat, mafkura</i>
	17-bosqich	Etik tushuncha nomlari	<i>hayo, nomus, oriyat</i>
	18-bosqich	Diniy tushunchalar	<i>iymon, savob, gunoh</i>
	19-bosqich	Metatushunchalar	<i>hayot, umr, mohiyat</i>

Ushbu konkretlik/abstraktlik shkalasidagi ketma-ketlikni qat'iy deya olmaymiz, balki ayrim o'rinlarida subyektivlikka yo'l qo'yilgandir. Ammo mazkur shkala tilda nomlarni konkretlik va abstraktlik asosida qat'iy chegaralash to'g'ri emasligini dalillab beradi. Zero, konkret so'zlarda ham muayyan darajada abstraksiya mavjud bo'lsa, abstrakt so'zlarning ma'lum darajalarida nomlanayotgan voqelikni bevosita kuzatish mumkin bo'ladi. Konkret va abstrakt nomlar o'rtasida oraliq hodisalarning mavjudligi ham ushbu shkala yordamida aniq namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент, 1983.
2. Коломийцева О.А. Дискретизация отвлечённых существительных в английском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Киев, 1986. – 20 с.
3. Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Тошкент, 2001.
4. Туленов Ж, Гофуров Ю. Фалсафа. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997.
5. Чернейко Л.О. Лингво-философский анализ абстрактного имени. – М.: МГУ им. Ломоносова, 1997. – 320 с.
6. Хакимова М. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси: Filol. fan. d-ri ...diss. – Toshkent, 2019.

Segmentatsiya va parsellyatsiya munosabati Relation of segmentation and parcelling

*Umurzoqova Marhabo Egamberdiyevna**

Annotation. *The article deals with segmented and parcelled constructions. Views on these two phenomena in linguistics are analyzed. Their similarities and differences are highlighted*

Key words. *Segmentation, parceling, topic, rhema, expressiveness, communicative process*

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti v.b., umrzoqova@navoiy-uni.uz

Soʻzlovchi muloqot jarayonida axborot berish bilan birga oʻzi muhim deb hisoblagan oʻrinni taʼkidlashga ham harakat qiladi. Uning kommunikativ maqsadiga koʻra gapning muhim boʻlagi boshqalaridan ajratilishi mumkin. Segmentatsiyaning mohiyati, bir sintaktik qurilmaga – gapga joylashishi mumkin boʻlgan axborotni boʻlak(segment)larga boʻlib berishda boʻlib, bunda aktuallashtirilgan qism alohida boʻlak sifatida gapning oldingi qismiga chiqariladi. “Segment qurilmalar kommunikatsiya uchun koʻproq ahamiyatli boʻlgan qismni mantiqiy jihatdan boshqalaridan ajratuvchi vosita sanaladi”[Мишель, 2020: 64]. Ekspressivlikni taʼminlovchi, nutq jarayonida eng koʻp qoʻllaniladigan, mohiyatan segment qurilmalarga oʻxshash sintaktik figuralardan biri parsellyativ qurilmalardir. Parsellyativ qurilmalarning oʻrganilishi, yondosh hodisalardan farqi, turlari kabi masalalar oʻzbek tilshunosligida Sh.Haydarov tomonidan monografik aspektda tadqiq qilingan [Ҳайдаров, 2011].

M.Yoʻldoshev doktorlik dissertatsiyasida parsellyatsiya haqida quyidagicha fikr bildiradi: “... parsellyatsiyaning asl mohiyati gapdagi muayyan mantiqiy taʼkidli uzvning, boʻlak yoki boʻlaklarning gapdan tashqariga chiqarib, gapdan keyin keltirib, poetik aktuallashtirishdir”[Йўлдошев, 2009: 278]

Segmentatsiya nutqiy hodisa boʻlib, soʻzlovchining kommunikativ jarayonda koʻzlagan maqsadiga mos ravishda gapni qayta tuzish, boʻlaklash natijasida yuzaga keladi. Oʻzbek tili materiallari asosida tahlil qilganimizda segment boʻlak sifatida bosh kelishikdagi ot, otlashgan soʻzlar, feʼlning harakat nomi shakli kela olishi maʼlum boʻldi.

Tilshunoslikda parsellyatsiya va segmentatsiya hodisasi, ularning umumiy va farqli jihatlari haqida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Qirgʻiz tilida parsellyatsiya hodisasi haqida tadqiqot olib borgan T.Tokayev parsellyatning umumiy gap strukturasiidagi uslubiy roli juda yuqoriligini, parsellyatsiyalangan konstruksiyalarda parsellyat soʻz, soʻz birikmasi shaklida boʻlishini, baʼzan ikki yoki undan ortiq miqdorda qatnashishi mumkinligi, bunday tuzilmalar parsellyatli kompleks deb atalishini taʼkidlaydi [Токаев, 1995: 9]

Parsellyatsiyaning badiiy matndagi oʻrni, tuzilishi, semantikasi va matn shakllantirish imkoniyatlarini tadqiq qilgan R.O.Zelipukin Bao Xunning “segmentatsiyaning ikki turi farqlanadi: tematik va rematik. Rematik segmentatsiya parsellyatsiyaning yuzaga kelishida tadqiq obyekti boʻlgan” degan fikrini keltiradi hamda parsellyatsiyani rematik segmentatsiya sifatida tavsiflaydi [Зелепукин, 2007: 25].

Taʼkidlash kerakki, parsellyat rema maqomida kelganda odatiy aktual boʻlaklanishdagi remadan farq qiladi, koʻp hollarda bir rema oʻrnida bir necha rema ishtirok etishi kuzatiladi. “Rematik segmentatsiya oʻziga xos aktual boʻlaklanishni hosil qiladi. Bir yoki bir necha segment boʻlak ohang va taʼkid olishi natijasida asosiy uzilib, gapdan keyingi pozitsiyani egallaydi hamda oʻziga xos rematik markazni hosil qiladi” [Зелепукин, 2007: 26]

“Parsellyatsiya ham yaxlit sintaktik strukturani boʻlaklash va bu boʻlakni asosiy gap oxiriga – taʼkidli pozitsiyaga chiqarishdir. Shuning uchun parsellyatsiyani segmentatsiyaning alohida bir koʻrinishi tarzida baholash mumkin” [Ҳайдаров, 2011: 48]

Sh.Haydarov segmentatsiya va parsellyatsiyaning ekspressiv sintaksisning usullaridan ekanligini taʼkidlab, ular oʻrtasidagi farqli va oʻxshash jihatlarni quyidagicha asoslaydi: “har ikkala hodisaning ham mohiyati yaxlit sintaktik butunlikni boʻlaklab, ikki yoki undan ortiq kommunikativ birlikka ajratishdan iborat; parsellyativ konstruksiya departizatsiyalana bilgani kabi segmentlangan konstruksiya ham desegmentatsiyalana oladi va bu juftliklar oʻrtasida ekspressiya ifodasining mavjudligiga koʻra variantlilik munosabati yuzaga chiqadi, shunga koʻra bu variantlar turli lingvopoetik qimmatga ega boʻladi” [Ҳайдаров, 2011: 51]

Taʼkidlash kerakki, segmentatsiyada ham, parsellyatsiyada ham muhim sanalgan boʻlak ajratib koʻrsatiladi. Tilshunoslikda ekspressiv sintaksisning usuli sanalgan bu hodisalar haqida turgʻunlashgan qarashga asosan, segmentatsiya ajratilgan boʻlakni gapning oldiga chiqaradi va u har doim ot xarakteridagi soʻzdan iborat boʻlib, bosh kelishikdagi soʻz bilan ifodalanadi.

Parsellyatsiyada esa parsellyat asosiy gapdan keyin kelib, morfologik jihatdan har xil bo‘lib, turli gap bo‘laklari maqomida bo‘ladi.

Segment qurilmali gaplarda segment bo‘lak har doim tema pozitsiyasini egallaydi. Rus tilshunosi T.R.Konovalova segment qurilmalar aktual bo‘laklanishning o‘ziga xos namoyon bo‘lishi ekanligini ta’kidlab, bu qurilmani maxsus kommunikativ vazifa bajarishga – fikr temasini ta’kidlashga, ajratib ko‘rsatishga va uni remaga qarama-qarshi qo‘yishga mo‘ljallangan grammatik vosita sifatida baholaydi [Коновалова, 1973:7].

Parsellyatsiya ham, segmentatsiya ham og‘zaki nutqqa xos bo‘lib, yozma nutqda ular asosan tinish belgilari vositasida ifodalanadi. Segmentatsiyaga xos bo‘lgan asosiy xususiyat uning asosan monologik nutqda uchrashi bo‘lsa, parsellyatsiya ham monologik nutqda, ham dialogik nutqda uchraydi. Parsellyatsiya dialogik nutqda personajlarning o‘ziga xos so‘zlashuv uslubini ko‘rsatishda, nutq jarayonida so‘zlovchining ruhiy holati – quvonchi, g‘azabi, ro‘y bergan voqelikdan esankirash, voqelikka shaxsiy munosabatini ifodalash, qo‘shimcha axborot berish kabilarni ifoda etishda, asar tilini jonli so‘zlashuv tiliga yaqinlashtirishda, badiiy asar tilining o‘ziga xosligini ta’minlashda asosiy vosita sifatida ishtirok etadi. Segmentatsiyada esa bu holat kuzatilmaydi. Parsellyatsiyadan farqli ravishda segmentatsiya so‘zlashuv nutqini kitobiy nutqqa yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Segment bo‘lakda ham qahramonning ruhiy holatlari bilan bog‘liq o‘zgarishlar ifoda etiladi, partsellyatsiyadan farqli ravishda segment bo‘laklar nutqqa ko‘tarinkilik, ulug‘vorlik, o‘ziga xos ohang, ba‘zan sokinlik berishda qo‘l keladi. Segmentatsiyada segment bo‘lak og‘zaki nutqda intonatsiya yordamida aniqlanadi, segment bo‘lakdan keyin to‘xtash, bir oz tin olish intonatsiyasining yo‘qligi segment bo‘lakni ajratib olish imkonini yo‘qqa chiqaradi.

Parsellyat ham segment bo‘lak singari nutqiy jarayonda so‘zlovchining aytilayotgan fikridagi muhim deb hisoblagan o‘rnini yozma nutqda punktuatsion hamda og‘zaki nutqda ohang jihatidan ajratishga xizmat qiladi. Hamda muallif tomonidan mantiqiy urg‘u berilayotgan, boshqa birliklardan ajralib turuvchi “fikrni tortish maydoni”ga aylanadi [Алексеевко, 2007:10].

Bazaviy qismning fikriy tugalligi parsellat bilan mazmuniy bog‘lanishida kuzatiladi, ya’ni parsellyatsiz asosiy qism mazmunan to‘liq bo‘lmaydi, chunki muallif muhim sanalgan qismni ta’kidlash maqsadida ajratib olgan, usiz gap mazmuni to‘liq anglashilmaydi, shu bilan bir qatorda parsellyat ham sintaktik tugal qurilma sanalmaydi. Parsellyatni hech qiyinchiliksiz gap tarkibidagi o‘rniga tiklash mumkin. Bunda parsellyat gap tarkibida bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar maqomida bo‘ladi. “Parsellyatsiya hodisasida fikr ifodasini beruvchi gap yoki jumla soni ko‘paysa, parsellyat yetakchi gap bilan birlashtirilganda, gapning sintaktik strukturasi kengayadi va bir paytning o‘zida uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi sintaktik munosabat shakli ham ma’lum ma’noda o‘zgaradi” [Хайдаров, 2011:52]. Segmentatsiyada esa bu har doim ham ro‘y beravermaydi. Segmentning asosiy gapdagi o‘rnini uning korrelyati egallagan bo‘ladi. Segment bo‘lak faqat olmosh bilan ifodalangan korrelyat o‘rniga yoki mazmunan o‘rni sezilib turgan bo‘sh o‘ringa joylashadi. Segment bo‘laksiz ham asosiy gapda mazmun anglashilaveradi, faqat ta’kid, ajratib ko‘rsatish vazifasi bajarilmay qoladi. Ayniqsa, korrelyatsiz yoki segment sifatida ajratilgan so‘zning o‘zi asosiy gap tarkibida takror kelganda bu holat yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Parsellyatsiya ekspressivlikni ifodalovchi birlik sanalgani uchun ham uni matndan tashqarida tahlil qilib bo‘lmaydi. Bundan tashqari parsellyat matnga xos muhim belgilar (nutqiy ravonlik, butunlik, ekspressivlik ifodalash, axborot berish)ni o‘zida namoyon qiladi. Parsellyatli qurilmalar matnda tema – rematik bo‘linishda asosiy rolni o‘ynaydi hamda parsellyat urg‘u olgan, ta’kidlangan rema sifatida namoyon bo‘ladi [Добрычева, 2012:7].

Parsellyatli qurilmalar badiiylikni ta’minlash, ta’kid ma’nosini kuchaytirish xususiyatlariga ega. Ular nutqdagi ma’no nozikliklarini, tinglovchi ilg‘ay olmagan jihatlarni, ekspressivlikni ifodalaydigan muhim vosita sanaladi.

Parsellyatli qurilmalardan foydalanish “ritmning o‘zgarishi, tejamkorlik tamoyili, fikrni lo‘nda ifodalash hamda ixcham shaklda mazmunli axborot yoki emotsionallikni berish bilan bog‘liq” [Валгина, 2001: 266] Parsellyatsiyadan farqli ravishda segmentatsiya tilning ortiqchalik tamoyili asosida yuzaga keladi. Natijada segment qurilmali gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya kuzatiladi. “Tilda semantik-sintaktik asimmetriyaning yuzaga kelishi tildagi doimiy ikki tendensiyaning – ortiqchalik va til vositalarining ekonomiyasi tendensiyalarining u yoki bu formada namoyon bo‘lishidan iborat” [Махмудов, 1984: 12]

Parsellyatsiya shaklan o‘xshash bo‘lgan ilova qurilmalardan farq qiladi. “Parsellyatsiya butun qismni ikki yoki undan ortiq bo‘lakka ajratish bilan o‘ziga xoslikni namoyon qiladi, ilova qurilmalar esa gapga qo‘shimcha mazmun tirkaydi” [Каркошко, 2011: 9] Ilova qurilmalarda tayyor qurilmadan keyin qo‘shimcha axborot beriladi, parsellyatsiyada esa berilayotgan axborotdan eng muhimi tinglovchining diqqatini ma‘lum o‘ringa tortish uchun tayyor gap tarkibidan uzib olinadi.

Parsellyatsiya va ilova konstruksiyalarni tadqiq qilgan A.Skovorodnikov parsellyatsiya va ilova konstruksiyalarni quyidagicha farqlaydi: “Ilova konstruksiyalar gapning turg‘un aspektiga xos hodisa sanaladi. Bu grammatik kategoriya o‘ziga xos grammatik ma‘no (qo‘shimcha axborot berish ma‘nosi) va o‘ziga xos grammatik shakl (maxsus bog‘lovchilar, bog‘lovchi iboralar va boshqa formal vositalar)ga egadir. Shuningdek, bu kategoriya o‘ziga xos strukturaga egaligi bilan asosiy va asosiy bo‘lmagan maydonni belgilashda muhim vosita sanaladi. Parsellyatsiya gapning dinamik aspektiga xos hodisa sanaladi. Bu fikrni bo‘laklashga asoslangan stilistik usul bo‘lib, gapni ekspressivlikni ifodalash uchun ikki yoki undan ortiq bo‘laklarga bo‘lishdir”. Ba‘zan bu ikki hodisani farqlash juda mushkulligini, bunda matn asosida semantik tahlil lozimligini ta‘kidlaydi [Сковородников, 1987: 128]. O‘zbek tilida parsellyativ va ilova qurilmalarning sintaktik derivatsiyasi haqida tadqiqot olib borgan A.G‘afforov bog‘lovchisiz shakllangan ilovali qurilmalarning ba‘zi jihatlari bilan parsellyativ qurilmalarga o‘xshab ketishini, lekin bunday qurilmalar yetakchi gap bilan qorishib keta olmasligini ta‘kidlaydi [Ғаффоров, 1997: 82]. Tadqiqotchi bog‘lovchisiz ilovali konstruksiyalar sifatida keltirgan misollar shaklan segment qurilmalarga o‘xshab ketadi. “–*Kelib-kelib qizimni suvchining o‘g‘liga beramanmi? – Uncha-muncha suvchimas-ku, onajon. Qahramon.*” Keltirilgan misoldagi *qahramon* so‘zi shaklan segment bo‘lakka o‘xshab ketsa-da, o‘zidan oldingi gapga tobeligi bilan segmentatsiyadan farq qiladi. Segmentatsiyada segment bo‘lak o‘zidan keyin kelgan gap bilan zich aloqalangan bo‘ladi. Parsellyativ va ilova qurilmalarda esa parsellyat va ilova bo‘lak o‘zidan oldin kelgan gapni izohlab, to‘ldirib keladi. Segmentatsiya va parsellyatsiyaga xos umumiy jihatlardan biri bu ikki qurilmada ham so‘zlovchi muhim deb hisoblagan jihatni ajratib, ta‘kidlab ko‘rsatishdir. G.N.Akimova ekspressiv qurilma bo‘lishi uchun uslubiy ta‘sirchanlikni ifodalash muhimligini, aks holda ularni ekspressiv sintaktik hodisalar sifatida baholab bo‘lmasligini qayd etadi [Акимова, 1981:113]. Segmentatsiya va parsellyatsiya ekspressivlikni ifodalovchi sintaktik hodisalar bo‘lib ular orasidagi quyidagi farqlar bor:

1. Parsellyatsiyadan farqli ravishda segmentatsiyada ajratilgan segment bo‘lak gapning oldiga chiqariladi. Aktual bo‘laklanish sathiga ko‘ra segmentatsiya har doim temaga, parsellyatsiyada parsellyat remaga to‘g‘ri keladi.

2. Segmentatsiyada segment sifatida ajratilgan bir tushuncha bazaviy qismda takror qo‘llanishi mumkin, parsellyatsiyada bu holat kuzatilmaydi. Segmentatsiyada bazaviy qismda segmentning korrelyati sifatida asosan olmosh turkumidagi so‘zlar keladi, ba‘zan korrelyat sifatida uning sinonimi yoki shu tushunchaning o‘zi takror kelishi kuzatiladi. Bazaviy qismda ba‘zan segmentning korrelyati ishtirok etmasa-da, mantiqan uning o‘rni bilinib turadi.

3. Segmentatsiyada segment bo‘lakning korrelyati bazaviy qismda ot – kesim, ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol pozitsiyasida kelsa-da, segment har doim bosh kelishik shaklida bo‘ladi. Parsellyatsiyada esa parsellyat har xil gap bo‘lagi bo‘lib, uni bazaviy gapdagi o‘rni bo‘sh bo‘ladi, parsellyatni osonlik bilan qayta o‘rniga joylashtirish mumkin.

4. Segmentatsiyada ham parsellyatsiyada ham gapning biror bo‘lagini to‘ldirishga, izohlashga e’tibor qaratiladi. Segmentatsiyada avval muhim axborot ajratilib olinadi, ta’kid ma’nosi kuchaytiriladi. Parsellyatsiyada esa muhim axborot asosiy axborotdan uzib olinib, ta’kidlash vazifasini bajarish uchun gap oxiriga joylashtiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, kelib chiqishi og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan bu ikki hodisaning yozma nutqda qo‘llanilishi ijodkorning o‘ziga xos uslubini ko‘rsatishga, asar tilining jozibali, ta’sirchan chiqishiga xizmat qiladi hamda jonli xalq tiliga yaqinlashuvida muhim vosita sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акимова Г.Н. Развитие конструкций экспрессивного синтаксиса в русском языке // ВЯ.1981. №6. – С.109-121
2. Алексеенко И.В. Парцелляция как грамматическая структура речи (на материале произведений английского языка). Автореф. канд. фил. наук. – Москва, 2007. – с.25
3. Валгина Н.С. Активные процессы в современном русском языке. – Москва, 2001. – С.266
4. Добрычева А.А. Парцелляция в прозе С.Довлатова: от предложения к тексту. Автореф. канд. фил. наук. – Владивосток.2012. – с.25
5. Зелепукин Р.О. Парцелляция в художественной прозе В.Токаревой: структура, семантика, текстообразующия функции. Дисс. канд. филол. наук. – Москва. 2007.
6. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Фил. фан.док.дисс. – Тошкент, 2009.
- 7.Каркошко О.П. Парцелляция: структура, семантика, функция (на материале русского и немецкого языков) Автореф. канд. фил. наук. – Майкоп, 2011. – с.25
8. Коновалова Т.Р. Сегментированные конструкции в современной русской речи. Автореферат. дисс. канд. фил. наук. – Саратов.1973. –с.25.
9. Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Тошкент:Ўқитувчи,1984. – 148 б.
10. Мишель М.А. Особенности функционирования экспрессивных синтаксических конструкций в речевых жанрах (на материале современной публицистики: Дисс. ...канд. филол. наук. – Санкт Петербург, 2002. – с.213.
- 11.Сковородников А.П. О соотношении понятий «парцелляция» и «присоединение» // ВЯ.1978. №1. –С.118-130
- 12.Токаев Т.Т. Қирғиз тилинда парцелляция. Фил.фан.номз.дисс.автореф. – Бишкек, 1995. – 24 б.
- 13.Ғаффоров А. Ҳозирги ўзбек тилида парцеллятив ва илова курилмаларнинг синтактик деривацияси. Фил.фан.номз.дисс. – Самарқанд, 1997. – 130 б.
- 14.Ҳайдаров Ш. Бадиий матнда парцеллятив конструкцияларнинг қўлланилиши. Ф.ф.номз.дисс. – Тошкент, 2011. – 146 б.

Morfemikada murakkab shakllarning hosil bo‘lishi Formation of complex forms in morphemes

*Uralov Azamat Begnarovich **

* Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Sirdaryo viloyat XTXQTMOHM, e-mail: azamaturalov06@gmail.com

MUNDARIJA

	<i>Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich</i>	9
	Milliy qadriyatlarimizning boqiy timsoli	
	I SHU‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING NAZARIY MASALALARI	
1	<i>Ashirbayev Samixan</i> Areal lingvistikada innovatsiya muammosi	12
2	<i>Berdialiyev Abduvali</i> Fe‘l grammatik shakllaridan birini hosil qiluvchi “-iz” unsuri va uning genezisi haqida	16
3	<i>Xudoyberganova Durdona</i> O‘zbek lingvomadaniyatshunosligining dolzarb muammolari	19
4	<i>Lutfullayeva D. Saparniyazova M.</i> Neyming texnologiyasi: neymlarning informativlik, kommunikativ natijaviylik va nutqiy ta‘sir ko‘rsatish funksiyasi	23
5	<i>Odilov Yorqinjon</i> Til va jamiyat: o‘zaro ta‘sirlashuv va takomillashuv	27
6	<i>Hakimova Muhayyo</i> O‘zbek tilida konkretlik-abstraktlik shkalasi	32
7	<i>Umurzoqova Marhabo</i> Segmentatsiya va parsellyatsiya munosabati	37
8	<i>Uralov Azamat</i> Morfemikada murakkab shakllarning hosil bo‘lishi	41
9	<i>Kosheva Dilrabo</i> Semantik tipologiya interdissiplinar fan sifatida	46
10	<i>Xidraliyeva Zoxira</i> Iqon shevasida singarmonizm xususiyatlari	51
11	<i>Tojiboyev Botir</i> Milliy-madaniy birliklar tilning milliy o‘ziga xosligini namoyon qiluvchi birliklar sifatida	55
12	<i>Alimova Shahnoza</i> Xorazm qipchoq shevalarida arabiy qatlamga oid so‘zlar tahlili	59
13	<i>To‘xtaboyeva Muyassarxon</i> Botu she‘riyatida badiiy takror	62
14	<i>Karimova Shahloza Boykuzi qizi</i> Hozirgi zamon tilshunosligida qo‘shma gaplar: ularning ta‘riflari va metatili	67
15	<i>Andaniyazova Dilrabo</i> Linguapoetic features of the precedent names in the Uzbek literary texts	70
16	<i>Suyunov Baxodir</i> Terminlarni boshqa til birliklaridan farqlab olish masalasi	77
17	<i>Muqimova Zohida</i> Maqollarning lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlari (O‘tkir Hoshimov asarlari misolida)	82
18	Sabirova Muxlisa	85
	Gazeta matnida performativ ifodani shakllantiruvchi vositalar	
19	<i>Yandashova Tursunoy</i> Go‘zallik konseptini ifodalovchi metaforik birliklar	88
20	<i>Xomidova Mahfuzaxon</i> Sarlavha-intertekstlarning badiiy matn persepsiyasidagi o‘rni	93